

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Andijon davlat universiteti
Pedagogika fakulteti

“Musiqiy ta’lim” kafedrası

Musiqqa nazariyasi

Fanidan

MA'RUZA MATN



Tuzuvchi:

M.Karimova

Andijon – 2017

1 Mavzu : MUSIQA TIZIMI

REJA

1. Tovush.
2. Musiqaviy tovushning fizik xususiyatlari.
3. Musiqaviy sistema.
4. Tovushkatorni tuzilishi.
5. Oktavalar.

MA'RUZA MATN

"Tovush" so'zi ikki xil tushunchani bildiradi. Birinchisi fizik xoldagi tovush, ikkinchisi sezgi xolatdagi tovush.

1. Cholg'u asbob torining tebranishi-vibratsiya deyiladi va tovush to'liqini deb aytiladi.


2. Tovush to'liqlari eshitish organi tomonidan qabul qilinadi va sistemasi orqali bosh miyaga o'tib unga ta'sir etadi.


Musiqaviy tovush xilma-xil bo'ladi, lekin qulogimiz musiqaviy tovush bilan shovqinli tovushni ajratadi.

Shovqinli tovushlar karsillash, gijillash, gumburlash, shivirlash kabi aniq balandlikka ega bo'lmagan tovushlar kiradi.

Musiqaviy tovush uch xil fizik xususiyatga ega balandlik-kattilik va tembr. Bundan tashkari musiqa tovushning cho'zilishi xam katta ahamiyatga ega. Balandlik tebranish tezligiga bog'liq, tebranish sust bo'lsa tovush past bo'ladi. Qattqlik tebranishni kuchiga bog'liq, tebranish amplitudasi qancha katta bo'lsa tovush shunchalik qattiq eshitiladi va aksincha Tembr-bu tovush xususiyati uning rang-barangligiga aytiladi.



Tovush cho'zimi tebranishning davom etishiga bog'liq bo'ladi. yukori tonlar ko'shimcha tebranish natijasida xosil bo'ladi. Uning balandligi xar-xil chunki ularni tebranish tezligi turlichadir.






Musiqaviy sistema.

Sistemada tovushlarning o'z balandligiga karab joylashadi tovushqatorda tovush esa uning pogonasi deb ataladi. Musiqaviy sistemada 88 ta xilma-xil tovushlar bor. Barcha tovushlar sekundiga 16 dan 4176 tebranishga egadir. Musiqaviy sistema tovush qatorining asosiy pogonalariga etita mustakil nom berilgan. DO. RE. MI. FA. SOL'. LYA. SI. Bu tovushlar fortepianoning ok klavishalariga mos keladi.



Tovush qatorda bu 7 ta asosiy pogonalarning nomi takrorlanib turadi va yo'l bilan barcha tovushlarni o'z ichida kamrab oladi. Bir-xil nomdagi tovushlar oralig'i oktava deyiladi. Fortepianoda **9 ta oktava** joylashgan, ularning nomlari quyidagicha. Subkontroktava, kontroktava, katta oktava, kichik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, to'rtinchi oktava va beshinchi oktava.



Amaliy misollar

Mustakil ish uchun savollar.

1. Musiqaviy tovushlar qanday xususiyatlarga ega?
2. Oktavalarni nomini aytib berining?
3. Musiqaviy va temperasiyalangan so'z nima?

Ishlash uchun misollar- og'zaki

1. Tovushqatordagi barcha asosiy pog'onalarni xarfiy sistema bo'yicha yuqoriga va pastga tomon xisoblab chiking.
2. Asosiy pog'onalarni yarim tonga va butun tonga ko'tarib yoki pasaytirib xarfiy sistemasi bo'yicha aytib bering.

Yozma.

1. Oktavalarni xarfiy sistemasi bo'yicha yozing.

2 Mavzu : Musiqaviy tovushlarning o'zaro munosabatlari.


REJA

1. Musiqaviy soz
2. Temperatsiyalangan soz.
3. Butun va yarim tonlar.
4. Hosila pog'onalar va ularning nomlari.
5. A'lteratsiya belgilari
6. Diapazon. Registr.
7. Tovushlar engarmonizmi.
8. Diatonik va xromatik.

MA'RUZA NATN

Musiqaviy sistemada tovushlar absolyut balandligi anik sozlanganligi o'zaro boglanishi musiqaviy soz deyiladi.

Kamerton



Musiqaviy sozga birinchi oktava Lya tovushi bir sekundiga 440 marta tebranishi asos qilib olingan. Musiqaviy sistemada xar bir oktava 12 teng kismga yarim tonlarga bo'lingan va temperatsiyalangan soz deb atalgan. Yarim tonlik musiqa sistemada eng kichik oralik xisoblanadi. Ikkita yarim ton butun ton deb ataladi.

Tovush qatorda ikkita yarim ton va beshta butun ton bor. Ular quyidagi tartibda joylashgan.

DO	RE	MI	FA	SOL	LYA	SI	DO
	1t	1t	0.5t	1	1	1	0.5t

Butun tonlar yarim tonlarga bo'linadi. Tovush qatorning xar bir asosiy pog'onasini ko'tarib yoki pasaytirish mumkun. Ko'tarilgan va pasaytirilgan pog'onalar mos tovushlar xosila pog'onalar xisoblanadi. Xosila pog'onalarining nomi asosiy pog'onalardan kelib chikadi.

Asosiy pog'ona yarim tonga ko'tarilsa- diez so'zi, yarim tonga- pasaysa bemol so'zi quyiladi. Ikkita yarim tonga pasaytirilsa dubl' bemol' ikkita yarim tonga ko'tarsa dubl' diez deb yuritiladi va alteratsiya deb nomlanadi. Alteratsiya so'zi o'zgarish ma'nosini bildiradi.

A'lteratsiya belgilari Asosiy pog'onalarining ko'tarilishi yoki pasaytirilishi al'teratsiya deb ataladi. Al'teratsiya belgilari 5 xil bo'ladi.

Diez - # - notani 0,5 tonga ko'taradi

Bemol' - b – notani 0,5 tonga pasaytiradi

Dubl' diez - x- notani 1 tonga ko'taradi

Dubl' bemol' -bb – notani 1 tonga pasaytiradi

Bekar -  -belgilarni bekor qiladi



Kalitdan keyin qo'yiladigan belgilar kalit al'teratsiya belgisi deyiladi. Kalit al'teratsiya belgilari o'z kuchini asar davomida saklab qoladi. Tasodifiy belgilar esa bitta takt davomida.


Tovushlar engarmonizmi.

Balandligi bir xil lekin nomi va yozilishi xar-xil bo'lgan pog'onalar tengligiga tovushlar engarmonizimi deyiladi. Xar bir tovush o'zidan yarim ton pastda yoki yuqorida joylashgan bo'lishi mumkun.

Masalan; fa-diez yoki si-bemol. Xosila pog'ona asosiy pog'ona bilan bir xil bo'lishi mumkin. Masalan; si diez do, fa bemol' mi yoki barabariga pasayishi yoki ko'tarilishi xam mumkun. Masalan; fa dubl diez - sol, mi dubl bemol - re.


Diatonik va xromatik.

Yarim tonlar va butun tonlar. Tovush qatorning yonma-yon joylashgan ikki pog'onasiorasida xosil bo'lgan yarim tonga diatonik yarim ton deyiladi. Bularga mi-fa va si-do larkiradi. Ko'tarilgan yoki pasaytirilgan xosila pog'onalar orasida xam diatonik yarim tonlar xosil bo'ladi. Masalan



Xromatik yarim ton deb asosiy pog'ona ko'tarilsa yoki pasaysa orasida yarim ton xosil bo'lganda aytiladi.


Masalan



Diatonik butun tonlar deb do-re, re-mi, fa-sol', sol'-lya, lya-si oraliqlarga aytiladi va bulardan tashkari ikkita xosila pog'ona orasida xam paydo bo'lishi mumkun. Masalan.



Xromatik butun tonlar deb asosiy pog'ona ikki baravar ko'tarilishi yoki pasayish natijasida xosil bo'lganda aytiladi. Masalan.



Amaliy misollar

Mustakil ish uchun savollar.

1. Musiqaviy va temperasiyalangan so'z nima?
2. Yarim ton va butun ton nima?
3. Al'terasiya belgilarga qanaqa belgilar kiradi va bu belgilar nima qiladi?
4. Asosiy pog'onalar xarfiy sistema bo'yicha qanday yoziladi va ataladi?

Ishlash uchun misollar- og'zaki

1. Asosiy pog'onalarni yarim tonga va butun tonga ko'tarib yoki pasaytirib xarfiy sistemasi bo'yicha aytib bering.
2. Do, re, sol', mi, fa#, fa, do x, si, tovushlardan diatonik va xromatik yarim ton va butun tonlar tuzing.
3. Si, re, fa, lya, do#, mi#, sol', si, re x, mi, tovushlariga teng bo'lgan engarmonik tovushlar nomini ayting.

Yozma.

1. Oktavalarni xarfiy sistemasi bo'yicha yozing.
2. Si, re, fa#, mi, sol', si#, fa, mi, tovushlardan yuqoriga va pastga diatonik va butun tonlar tuzing va nota bilan yozing.
3. Fa, si, re#, sol' x, mi, lya, do, tovushlarga teng keladigan engarmonik tovushlarni nota bilan yozing.

Fortepianoda ijro etish.

A, g, es, v, N, fis, G', d, S, e, Sies, gis, A, disis, ases, V, b, Dis, a, Neses, fis, s, des, gisis, e,

3 Mavzu : Nota yo‘zuvi, nota cho‘zimlari va ularda qo‘llaniladigan belgilar.

REJA

1. Nota yozuvi.
2. Nota cho‘zimi.
3. Kalitlar.
4. Nota yozuvini uzaytiruvchi belgilar.
5. Nota yozuvini qisqartiruvchi belgilar.
6. Xarfiy sistema.
7. Pauzalar.
8. Ko‘p ovozli musiqa qo‘yilishi.
9. Dinamik belgilar


MA‘RUZA NATN

Nota lotincha So‘z bo‘lib belgi ma‘nosini bildiradi.


Nota yozuvi deb tarixdan yuzaga kelgan maxsus belgi - notalar vositasida tovushlarni yozish sistemasiga aytiladi. Nota belgisi doirachalardan iborat. Tovushlarni cho‘zimiga qarab doirachalarni ichi bo‘sh, bo‘yalgan, tayoqcha (shtil’), tayoqchaga dumchalar, Gruppasiga esa qovurg‘achalar qo‘yiladi.




Tovushlarning balandligini aniqlash uchun notalar 5 ta parallel chiziqqa joylashtiriladi. Chiziqlar pastan yuqoriga qarab sanaladi. Nota yo‘lini boshiga vertikal boshlang‘ich chiziq qo‘yiladi.



Notalar nota yo‘lini ustiga, yo‘liga, orasiga va pastiga yoziladi.




Asosiy chiziqlardan tashqari qo‘shimcha chiziqlar ishlatiladi. Qo‘shimcha chiziqlar asosiy chiziqlarni ostiga va ustiga qo‘yiladi.



Ostidagi chiziklar tepadan pastga qarab sanaladi. Ustidagi chiziqlar pastan tepaga qarab sanaladi. Tayoqcha yoki shtil' uchinchi chizig'dan tepada yozilgan bo'lsa, shtil' notalarga pastga qaratib ko'yiladi. Uchinchi chiziqdan tepaga yozilgan notalarga pastga qaratib qo'yiladi.

NOTA CHO'ZIMI

1) Eng katta cho'zimli tovush - butun



2) Butun cho'zimli tovushning ikki marta qisqargani- yarimtalik



3) Yarimtalikni ikki marta qisqargani - choraktalik



4) Chorakning ikki marta qisqargani - nimchorak



5) Nimchorakning ikki marta qisqargani - o'noltitalik




6) O'noltitalikning ikki marta qisqargani — o'ttizikkitalik



7) O'ttizikkitalikni ikki marta qisqargani- oltmishturtalik



Bulardan xam qisqa notalar kam ko'llaniladi. Shuningdek, butun cho'zimni ikki marta oshirib yoziladigan nota xam kam ishlatilindi.



KALITLAR


Tovushlarning muayyan balandligi maxsus belgi bilan belgilanadi va bu belgi Kalit deb ataladi. Kalit nota yo'lini boshida asosiy chiziqlarga qo'yiladi. Ana shu chiziqda joylashgan nota tovush balandligini belgilaydi.

Xozirgi zamonga kelib uch xil kalit qo'llaniladi.

1) Skripka kaliti (sol kaliti)



2) Bas kaliti (fa kaliti)



3) Al't va Tenor kaliti (do kaliti)




Al't kaliti al't va trombon asboblari uchun ishlatilindi. Tenor kaliti fagot va trombon asboblari uchun ishlatilindi. Oldingi davrda kalitlar turi ko'p bulgan.

Do - soprano kaliti 1 - chiziq ustiga qo'yilgan. 2 - chi chiziqda messo soprano kaliti 5 - chi chiziqda Bariton kaliti joylashgan. Bular odam ovozi diapozoniga mos keladi va qo'shimcha chiziqlar ko'p bo'lgan.

NOTANI UZAYTIRUVCHI BELGILAR

Nota yozuvida cho'zimlarni uzaytiruvchi qo'shimcha belgilar xam qo'llaniladi.

a) Nuqta - Tovush cho'zimini yarim baravar uzaytiradi.



b) Ikki nuqta - Tovush cho'zimini yarim baravar va uning asosiy cho'zimidan yana chorak baravar uzaytiradi.



v) Liga - yonma-yon turgan bir xil balandlikdagi nota cho'zimlarini birlashtiruvchi egri chiziq




g) Fermato - tovush cho'zimini vaqt bilan cheklanmagan uzayishini ko'rsatuvchi belgi. Fermato nota ustiga yoki ostiga qo'yiladi.



NOTA YOZUVINI QISQARTIRUVCHI BELGILAR

Nota yozuvini soddalashtirish uchun belgilar quyiladi.


a) Qo'shimcha chiziqlarni ko'paytirmaslik uchun asarni ma'lum qismiga bir oktava yuqoriga yoki pastga shu belgi qo'yiladi



b) Repriza. kuyni qismiga qo'yiladi.




v) Vol'ta. Kuyni qaytarish qismini oxiriga qo'yiladi.




g) Uch qismli shaklda, uchinchi qism yozilmaydi, ikkinchi qismdan keyin boshiga o'tiladi. Do soro a1- fihe – ya'ni " boshidan oxiri so'zigacha " - oxiri esa fihe-degani - S - segna belgisi qaytarilish joylariga qo'yiladi.

d) Takt bir necha marta qaytarilsa qo'yiladi.



e) Takt orasida takrorlanish bo'lsa




yo Takrorlanuvchi tovush akkord bo'lsa

tr

j) Tremolo

z) Oktavada ijro etilishi



Xarfiy sistema.

Amaliyotda tovushlar bo'g'in bilan yozilishidan tashkari, Lotin alfaviti asosida xarf bilan yoziladi. Masalan.

C	D	E	F	G	A	H
Do	re	mi	fa	sol'	lya	si

Xosila pog'onalarni yozish uchun xarflarga qo'shimcha bo'g'inlar qo'shiladi.

Masalan. Is-diez, cis-do diez

Isis-dubl' diez, des-re bemol'

Es-bemol' fisis-fa dubl' diez

Eses-dubl'bemol, geses-sol' dubl' bemol'

Xamma pog'onalarda Si bimol dagida qo'shimcha bo'g'in bo'lmaydi. B yoki b xarfi bilan yoziladi. Es bo'g'inda unli **a** va **e** xarflar uchrasa, talaffuzning qulay bo'lishi uchun; mi bemol' ees o'rniga es, lya bemol' aes o'rniga as yozilladi.

Oktavalarini belgilashda xarflar ustiga qo'shimcha qilib raqamlar yoki chiziqlar yoziladi. Katta va kichik oktavalarining tovushi katta yoki kichik xarflar bilan yoziladi. Masalan; katta oktavaning lya tovushi katta **A** xarfi bilan kichik oktava kichik **a** xarfi bilan yoziladi.

Birinchi oktavadan beshinchi oktavagacha bo'lgan tovushlar qaysi oktavaga tegishli bo'lsa, shunday rakam yoki chiziqlar va kichik xarflar bilan belgilanadi.

Masalan;

Subkontr oktava - H 2

Kontr oktava -C1

Katta oktava - F

Kichik oktava - h

1 oktava do tovushi - c1

2 oktava re tovushi - d2

3 oktava mi tovushi - e3

4 oktava fa tovushi - f4

5 oktava do tovushi - c5

Kontroktava bilan subkontroktava tovushlari qaysi oktavaga tegishli bo'lsa ostiga yoziladigan shunday raqamlar yoki chiziqlar va katta xarflar bilan belgilanadi.

PAUZALAR

Tovush yangrashining vaqtincha to'xtalishi pauza deyiladi. Tovush cho'zamlari qanday o'lchansa, pauzalar davomiyligi xam shunday o'lchanadi.

Butun nota cho'zimga teng keladigan pauzaning yozilishi




Yarimtalik nota - cho'zimga teng keladigan pauzaning yozilishi




Choraktalik nota - cho'zimga teng keladigan pauzaning yozilishi



Nimchoraktalik nota cho'zimga teng keladigan pauzaning yozilishi



Un oltitalik nota - cho'zimga teng keladigan pauzaning yozilishi



Dinamik belgilar

Tovushlarni baland, o'rtacha baland yoki past Ijro e'tish mumkin. Musikaviy asarlarda shunday belgilar mavjudki ular xar bir asarni mayin yoki ko'pol kilishi mumkin. Masalan:

P - piano mayin, eshitar – eshitilmas ijro etiladi.

F - forte ko'pol, baland ijro etiladi.

PP - juda past ijro etiladi.

FF - juda baland ijro etiladi.

> - diminuendo - asta pasaytirib ijro etiladi.

< -kreshendo -asta sekin balandlatib ijro etiladi.

mp - messo piano o'rtacha past ijro etiladi.

Mf - mtsso forte o'rtacha baland ijro etiladi.

AMALIY MISOLLAR:

Mustaqil ish uchun savollar

1. Nota yo'lida notalar qanday tartibda joylashadi.
2. Qanaqa kalit belgilari qo'llaniladi
3. Al'teratsiya belgilari nima.
4. Cho'zimlarni qisqartiruvchi va uzaytiruvchi belgilar
5. Pauza nimani bildiradi
6. Asosiy cho'zimlarni aytib bering
7. Dinamik belgilar turlarini aytib bering

Ishlash uchun misollar

1. Al'teratsiya belgilarini nota chizig'idagi birin ketinligi
2. Berilgan notalar cho'zimini pauzalar bilan almashtiring.
3. Asosiy chiziqni ustiga va pastiga qo'shimcha chiziqlar qo'yilish tartibi.
4. Tayoqcha yoki shtil' qaysi chiziqda pastga yoki tepaga qaratiladi
5. Kalitlarni nomi va yozilishi tovushlari bilan
6. Dinamik belgilar turlarini ko'rsatib bering

Fortepianoda ijro etish

1. Asosiy tovushlarni barcha oktavada chalish.
2. Skripka kalitida do majorni ijro etish.
3. Bas kalitida lya minorni ijro etish
4. Al't kalitida sol' majorni ijro etish
5. Tovushlarga nuqta qo'yib sanab chalish.

4 Mavzu : Ritm va metr


REJA

1. Musiqaviy zarb. Metr, o'lchov, takt. Takt chizig'i. Takt oldi.
2. Oddiy metrlar va o'lchovlar.
3. Murakkab metrlar va o'lchovlar.
4. Aralash metr va o'lchovlar.
5. O'zgaruvchan o'lchovlar.
6. Cho'zimlarning asosiy va erkin ravishda bo'linishi.
7. Sinkopaning ahamiyati.
8. Vokal musiqasida turkumlash.
9. Temp (sur'at).
10. Dirijorlik koidalar.

MA'RUZA NATN

Ritm va metr : O'zaro bog'lanib izchil kelgan tovushlar cho'zimi ritm deyiladi. Musiqada tovushlar cho'ziminin ketma-ket kelishi natijasida ularning ma'lum vaqt ichida almashib turishiga aytiladi. Tovushlar muayyan tartibda, cho'zimlar bog'langan xolatni ritmik turkum (usul) deyiladi. Musiqada asosiy cho'zimlarga -butun, yarim, chorak, nimchorak va x.k. deyiladi, ularning teng qismga bo'linish natijasida xosil bo'lgan cho'zimlar esa

- a) Triol'; b) Kvintol'; v) Sekstol' ;g) Septol'; d) Duol' -yoniga nuqta qo'yiladi.
e) Kvartol' -to'rt qismga bo'linadi.



MUSIQAVIY AKTSENT (ZARB) METR, O'LCHOV, TAKT.

TAKT CHIZIGI, TAKT OLDI.

Tovushlarning ma'lum bir vaqtlarda teng xissalarga bo'lib, almashib turishi musiqada bir tekis xarakatni xosil qiladi (bunday xarakatga pul'sasiya xam deyiladi). Tovushlarni ana shu xarakati vaqtida ayrim xissalar urg'usi ajralib turadi, bu urg'ularga aktsent (zarb) deyiladi. Aktsent tushadigan xissalar kuchli xissalar, aktsent tushmaydigan xissalarga esa kuchsiz xissalar deyiladi. Kuchli va kuchsiz xissalarning tekis almashinib turishi metr

deyiladi. Metr xissaning ma'lum bir cho'zimdagi ifodalanishi- o'lchov deyiladi. Nota chizig'iga skripka kaliti va al'teratsiya belgilaridan keyin qo'yiladi. Musiqa asarining bir kuchli xissadan ikkinchi bir kuchli xissagacha bo'lgan oraligi takt deyiladi, va vertikal takt chizig'i qo'yiladi. Agar musiqa asari kuchsiz xissadan boshlansa takt oldi deyiladi.

ODDIY METR VA O'LCHOVLAR

Aktsentlar (kuchli xissa) xar bir xissadan keyin takrorlansa ikki xissali metr o'lchovi deyiladi, agar xar ikki xissadan keyin takrorlansa uch xissali metr deb ataladi.

a) Ikki xissali o'lchovlar ; $2/2$; $2/4$; $2/8$:

b) Uch xissali o'lchovlar ; - $3/2$; $3/4$; $3/8$; $3/16$:

Bir takt ichida ritmlar turkumlansa, u cho'zimlar turkumlanishi deyiladi. Bunda asosiy xissalar bir biridan ajraladi. Masalan ;



MURAKKAB METR VA O'LCHOVLAR


Bir xildagi oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida murakkab metrlar xosil bo'ladi. Murakkab metr ikki va undan xam ko'proq oddiy metrlardan tarkib topishi mumkin, shuning uchun bir necha kuchli xissaga egadir. Murakkab metrda birinchi xissa kuchli xissa, keyingilari esa nisbatan kuchli xissa deyiladi.

a) Turt xissali o'lchov ; - $4/4$, $4/2$ - kam uchraydigan $4/8$:

b) Olti xissali o'lchov ; - $6/4$, $6/8$ - kam uchraydigan $6/16$:

v) To'qqiz xissali o'lchov ; - $9/8$ - kam uchraydigan $9/4$, $9/16$:

g) O'n ikki xissali o'lchov ; - $12/8$ - kam uchraydigan $12/16$.



ARALASH METR VA O'LCHOVLAR

Ikki yoki bir necha xar-xil ko'rinishdagi oddiy metrlar birlashuvi - murakkab aralash metrlar deyiladi, ifodalovchi o'lchovlar esa aralash o'lchovlar deb ataladi.

Aralash o'lchovlar musiqa da kam uchraydi. Bular orasida 5 va 7 xissali o'lchovlar ko'proq ko'llaniladi: 5/4, 5/8: 7/4, 7/8 : Aralash o'lchovlar murakkab o'lchovdan farq qiladi.

1) Aralash o'lchovlarning tuzilishi ularni xosil qiladigan oddiy o'lchovlarning ketma-ket kelishiga bog'liqdir, bu esa kuchli va nisbatan kuchli xissalarning almashib turishiga xam ta'sir etadi.

2) Taktning kuchli va nisbatan kuchli xissalarning almashinib turishi tekis bolmaydi.

5/4 (2/4 + 3/4) - 5/4 (3/4 + 2/4)

7/4 (3/4 + 2/4 + 2/4) - 7/4 (2/4 + 2/4 + 3/4)



O'ZGARUVCHAN METR VA O'LCHOVLAR

Musiqa da metrning bir asar davomida o'zgarib turishi, ayni paytda o'lchovning xam o'zgarib turish xollari uchraydi, bunday o'lchovlar o'zgaruvchan o'lchovlar deyiladi. O'zgaruvchan o'lchovlar xalq qo'shiqlarida, rus klassik bastakorlari asarlarida uchratish

mumkin. O'lchovlar tekis va notekis almasha, kalit belgisi yonidagi kasr shaklida ikkita raqam qo'yiladi.



Oddiy o'lchovlar	Murakkab o'lchovlar	Aralash o'lchovlar	O'zgaruvchan o'lchovlar
A) 2/2, 2/4, 2/8. B) 3/2, 3/4, 3/8, 3/16.	A) 4/4, 4/2, 4/8 B) 6/4, 6/8, 6/16. B) 9/8, 9/4, 9/16. Г) 12/8, 12/16.	A) 5/4, 5/8. B) 7/4, 7/8.	Musikiy asar davomida o'lchov o'zgarilsa O'zgaruvchan o'lchovlar dtyiladi.

SINKOPA

Ritm va metr aktsentlarining bir-biriga to'g'ri kelmay qolishi, ritmdagi izchillik buzilishiga sinkopa deyiladi. Sinkopa musiqada ko'p uchraydi, u metrning kuchsiz xissasidagi tovushning navbatdagi kuchli xissasida xam eshitilishidan xosil bo'ladi. Buning natijasida zarb metrning mana shu kuchsiz xissasiga o'tadi. Metrning biror xissasida kuchsiz davriga to'g'ri kelgan tovush bundan keyingi kuchli davrga to'g'ri kelganda xam o'z kuchini saklab ko'ladi .

Sinkopalarning asosiy shakli:

- a) Takt aro sinkopalar (2/4, 3/4)
- b) Takt ichidagi sinkopalar (2/4, 3/4)
- v) pauzadan keyin

TEMPLAR

Xarakat tezligi temp (sur'at) deyiladi. Templar uchta asosiy turga bo'linadi -vazmin, o'rta va tez. Templarni aniqlashda asosan Italiyancha iboralar qo'llanilgan. Keyinchalik esa sovet vaktida rus iboralar ishlatilgan Mustaqilligimizdan keyin esa O'zbek bastakorlar yaratgan asarlarda O'zbekcha iboralar paydo bo'ldi.

Vazmin templar largo - keng, Lento - cho'zib, Adajio – og'ir, Grave -juda og'ir O'rtacha templarga -Andante – oso'ishta, oshiqmasdan, Andantino –andantedan sal tezlatib, Modegato – o'rtacha, Sostenuto - salobatli Allegretto - jonlanib, allegro moderato

– oʻrtacha tez. Tez templar - Allegro -tez, Vivo - jonliroq, Vivase - jadal, presto - tez oshikib prestissimo -juda tez.


Musiqa taʼsirchan va ifodali chiqishi uchun tezlatish va susaytirish iboralar ishlatiladi. Templarni yanada aniqroq bilib olish uchun metronomdan foydalaniladi.

Vazmin	Oʻrtacha	Tez
1. largo - keng, 2. Lento - choʻzib, 3. Adajio – ogʻir, 4. Andante – osoʻishta,	1. Modegato – oʻrtacha, 2. Sostenuto - salobatli 3. Andantino –andantedan sal tezlatib,	1. Vivo - jonliroq 2. Vivase - jadal, 3. Allegro -tez, 4. presto - tez oshikib

DIRIJYORLIK QOIDALARI


Xor, orkestr yoki ansambl uchun yozilgan musiqa asari ijrochiligini boshqarish, keng maʼnoda dirijorlik deyiladi. Qoʻshik aytilganda yoki solʼfedjiyoda dirijyorlik deb quyidagilar nazarda tutiladi; birinchidan, xisoblab turish, yaʼni takt xissalari almashuvi va ularning choʻzim vaktini koʻrsatib turish, ikkinchidan, mazkur asar tempini aniklash. Dirijyorlik qoidalarini ikki, uch va toʻrt xissali koʻl xarakatlariga asoslanadi.

Чап қўл




2 / 4

Ўнг қўл




Чап қўл





3 / 4

Ўнг қўл



Чап қўл

Ўнг қўл



4 / 4

AMALIY MISOLLAR

Mustakkil ish uchun savollar:

1. Ritm va metr nima ?
2. Metrning aktsent tushadigan va tushmaydigan xissalarining nomlari.
3. O'lchov nima.
4. Sinkopa nima.
5. Temp nima.
6. Dirijyorlik qoidalarini.
- 7.

Ishlash uchun misollar.

1. Cho'zimlarning asosiy va erkin bo'lishini ishlab bering.
2. Metrning aktsent tushadigan va tushmaydigan xissalarni bolalar asarida ko'rsating.
3. O'lchovlar nota yozuvida qaerga va qanday yoziladi.
4. Takt va takt chiziklarini va takt oldilarni ko'rsatib bering asarlarda.
5. Musiqada sinkopaning asosiy formalarini ko'rsatib bering.
6. Aralash, murakkab va oddiy o'lchovlarni dirijyorlik qoidalarini ko'rsating.

Fortepianoda ijro etish misollar.

1. Bolalar asarini to'g'ri turkumlangan xolida ijro eting.
2. Berilgan asarlarni o'lchovlarini aniqlab bir ovozda choling.
3. Berilgan asardagi sinkopalarni ko'rsating va chalish usulini ko'rsating.

5 Mavzu : Oddiy intervallar. Intervallarning aylanishi.

REJA

1. Oddiy intervallar va diatonik intervallar.
2. Xromatik intervallar.
3. Intervallarning engarmonik tengligi.
4. Intervallarning aylanishi.

MA'RUZA NATN


INTERVAL Bir vaqtda yoki birin-ketin eshitilgan ikki tovush qo'shilmasi interval deyiladi. Birin-ketin eshitilgan tovushlar melodik interval deyiladi. Baravariga eshitilgan tovushlar garmonik interval deyiladi. Intervallarning pastki tovushi asosiy yuqoridagi tovush chuqqisi deyiladi.



Intervallarning son va sifat miqdori

Xar bir interval son va sifat miqdori bilan aniqlanadi. Pog'onalar soni bilan ifodalangan intervallar son miqdori intervallar deyiladi. Ton va yarim tonlar soni bilan ifodalangan intervallar sifat miqdorli intirvallar deyiladi. Bir oktava oralig'ida xosil bo'lgan interval oddiy interval deyiladi.

Sakkizta oddiy interval bor. Intervallar lotin tilida nomlanadi.




№	Interval nomi
1.	Prima

2.	Sekunda
3.	Tertsiya
4.	Kvarta
5.	Kvinta
6.	Seksta
7.	Septima
8.	Oktava

Intervalning sifat miqdorini belgilash uchun; kichik, katta, sof, ortirilgan, kamaytirilgan soʻzlar ishlatiladi.

№	Interval nomi	Soni	Kiska Yuzilishi	Sifati
1.	Prima	Sof	S.1	0.ton
2.	Sekunda	katta, kichik,	Kat.2 Kich.2	1. ton 0,5 ton
3.	Tertsiya	katta, kichik,	Kat.3 Kich.3	2. ton 1,5 ton
4.	Kvarta	Sof Ortirilgan	S.4 Ort.4	2,5 ton 3 ton
5.	Kvinta	Sof Kamaytirilgan	S.5 Kam.5	3,5 ton 3 ton
6.	Seksta	katta, kichik,	Kat.6 Kich.6	4,5 ton 4 ton
7.	Septima	katta, kichik,	Kat.7 Kich.7	5,5 ton 5 ton
8.	Oktava	Sof	S.8	6 ton




Bu intervallar diatonik deb ataladilar.

3. Ortirilgan va kamaytirilgan intervallar."

Xar bir diatonik interval ortirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Ortirilgan intervallar sof va katta intervallardan tuziladi. Kamaytirilgan intervallar sof va kichik intervallardan

tuziladi. Faqat sof prima kamaymaydi. Barcha ortirilgan va kamaytirilgan intervallar xromatik deb ataladi. Uch tonlikdan tashkari.



Ortirilgan intervallar



Kamaytirilgan intervallar

Xromatik interval Diatonik interval soniga teng keladi. Ortirilgan. 2 = kichik. 3 (1, 5 ton) kamaytirilgan. 7 = katta. 6 (4, 5 ton).




Son miqdori turlicha va eyshitilishi bir xilda bo'lgan intervallar engarmonik teng intervallar deyiladi.

INTERVALLAR AYLANISHI.

Interval tovushlarining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishi natijasida pastki tovush yuqoriga va yuqoridagi tovush pastga joylashuvi, - Interval aylanishi deyiladi.

1. Asosiy (Pastki tovushni) bir oktava pastga ko'chirish.
2. Cho'qqini (yuqori tovushni) bir oktava pastga ko'chirish. Aylanish natijasida yangi interval xosil bo'ladi.



Qoida bo'yicha, sof intervallar - sofga kichik intervallar - kattaga katta intervallar-kichikka ortirilgan intervallar kamaytirilganga kamaytirilgan intervallar ortirilganga aylanadi va aksincha.

AMALIY MISOLLAR

Mustaqil ish uchun savollar.

1. Interval nima.
2. Intervallarning son va sifat miqdorlari qanday aniqlanadi.
3. Intervallarning aylanishi.

Ishlash uchun misollar.

1. Asosiy pog'onalardan pastga va yuqoriga qarab barcha oddiy intervallarni tuzing.
2. Asosiy pog'onalardan pastga va yuqoriga tomon barcha ortirilgan va kamaytirilgan intervallarni tuzing.
3. Oddiy intervallarni aylantirib yozing.

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Oddiy intervallarni sol' va fa tovushlaridan tuzing va chaling
2. Oddiy intervallarni aylantirib ijro eting.

6 Mavzu : Tarkibli intervallar. Konsonans va dissonans intervallar.

REJA

1. Tarkibli intervallar.
2. Ohangdosh (konsonans) va nohangdosh (dissonans). Intervallar

Ma'ruza matn.

TARKIBLI INTERVALLAR.

Musiqada oddiy intervallardan tashqari oralig'i oktavadan keng intervallar xam qo'llaniladi. Oralig'i bir oktavadan keng intervallarni TARKIBLI interval deyiladi. Xar bir tarkibli interval pog'onalar soniga qarab nom olgan.

1. Nona - 9 = Oktava orqali tuzilgan sekunda.
2. Detsima - 10 = Tertsiya.
3. Undettsima - 11 = Kvarta.
4. Duodettsima - 12 = Kvinta.
5. Tertsdettsima - 13 = Seksta.
6. Kvartdettsima - 14 = Septima.
7. Kvintdettsima - 15 = Oktava.



Tarkibli intervallarda sifat miqdorini belgilash uchun - sof, katta, kichik, ortirilgan, kamaytirilgan so'zlar qo'llanilgan.

OXANGDOSH VA NOOXANGDOSH INTERVALLAR.

Oxangdosh (konsonans) va nooxangdosh (dissonans) intervallar bo'ladi.

Oxangdosh (konsonans) deb bir-biri bilan uyg'unlashgan, oxangdosh bo'lib eshitiladigan tovushlar yig'indisiga aytiladi.

Nooxangdosh (dissonans) deb bir-biri bilan uyg'unlashmagan, quloqqa keskin eshitiladigan tovushlarga aytiladi.

Oxangdosh intervallar.

Sof prima Nixoyatta mukammal oxangdoshlar.

Sof oktava

Sof kvinta Mukammal oxangdoshlar.

Sof kvarta

Kichik tertsiya

Katta tertsiya Nomukammal oxangdoshlar.

Kichik seksta

Katta seksta

Nooxangdosh intervallar.

Kichik sekunda

Katta sekunda

Ortirilgan kvarta

Kamaytirilgan kvinta

Kichik septima

Katta septima

Qoida bo'yicha oxangdosh – oxangdoshga, nooxangdosh – nooxangdosh intervallarga aylanadi.

AMALIY MISOLLAR

Mustaqil ish uchun savollar.

1. Tarkibli intervallar.
2. Oxangdosh va nooxangdosh intervallar.
3. Garmonik va melodik intervallarning farqi.

Ishlash uchun misollar.

1. Asosiy pog'onalardan tarkibli intervallar tuzing.
2. Xromatik intervallar tuzing.
3. Intervallarni garmonik va melodik xolatida tuzing.

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Tarkibli intervallarni tuzing va chaling.
2. Oddiy intervallarni aylantirib ijro eting.

7 Mavzu : Lad (major va minor ladi). Tabiiy major gammasi Tonallik, kvinta davrasi. Major tonalliklari engarmonizmi.

REJA

- 1.Lad.
- 2.Turg'un va noturg'un tovushlar hamda ularning yechilishi.
3. Major va minor ladi.
4. Tabiiy major gammasi
- 5.Tonalliklar.
- 6.Diezli va bemolli major tonalliklari.
- 7.Kvinta davrasi.
- 8.Major tonalliklari engarmonizmi

MA'RUZA MATN

LAD - Turg'un tovushlar, tonika-T, noturg'un tovushlar va ularning echilishi.

Ladda tayanch tovushlar turg'un tovushlar deyiladi.

Turg'un tovushlardan birortasi boshqalarga qaraganda keskin ajralib turadi va asosiy tayanch rolini bajaradi. Shu turg'un tovush tonika deb ataladi. Turg'un tovushlardan nisbatan ancha kuchsiz bo'lib eshitilgan tovushlarni noturg'un tovushlar deyiladi. Noturg'un tovushlar – turg'un tovushlarga intiladi (tortiladi) va o'tadi, shu tovushlar o'tishini echilish deyiladi.


Turg'un va noturg'un tovushlarning o'zaro munosabat sistemasi LAD deyiladi.

1. Major Ladi.

Xalq musiqasida xar-xil ladlar uchraydi. Lekin asosiy o'rinni Major va Minor egallagan.

Turg'un tovushlar birin ketin yoki birdaniga eshitilsa uchtovushlik majori yoki katta uchtovushlik — akkordni xosil qiladi va major ladi deyiladi.

Tovushlar uchtovushlikda, tertsiya bo'yicha joylashadilar; katta tertsiya + kichik tertsiya.



Gamma tabiiy major.



Pogonalar mustaqil nomga ega.

1 — Tonika (T)

2 - pastka boshlovchi tovush

3 - Medianta



4 - Subdominant

5 - Dominanta

6 - Submedianta

7 - yukoriga boshlovchi tovush

Xar bir ladning tonikasi, subdominantasi va dominantasi asosiy pog'onalar xisoblanadi, qolganlari esa yondosh deyiladi.



Turg'un tovushlarga - I, III va V pog'onalar kiradi.

Noturg'un tovushlarga - II, IV, VI, VII pog'onalar kiradi.

2. Tonalliklar. Kvinta davrasi. Lad o'rnatilgan pardalar (balandlik) tonalik deyiladi.

Major ladi do tovushdan tuzilsa tonalligi do - major deyiladi. Major tonallik tovushi ko'tarilishi yoki pasayishi xam mumkin. Bunga al'teratsiya belgilari bilan nomlanadi, do - diez major deb. Musiqada 7 ta diezli va 7 ta bemolli tonallik qo'llaniladi. Al'teratsiya belgilari kalitdan so'ng qo'yiladi.

Bir biridan bitta belgi farq qilgan tonalliklar yondosh deb ataladi.

Diezli tonallik xar 5 pog'onada to'g'ri keladi. Bemolli tonallik xar 4 pog'onada to'g'ri keladi.

Balandligi bir xil, lekin yozilishi turlicha bo'lgan tonalliklarga engarmonik teng tonallik deyiladi. Ular 12 ta dan iborat. Yuqoriga sof kvinta bo'yicha tuzilgan diezli va

pastga tomon sof kvinta bo'yicha tuzilgan bemolli major tonalliklarining joylashuv tartibi kvinta davrasi deyiladi.

MAJOR TONALLIKLAR KVINTA DAVRASI

	C- dur	
1	F – dur	G – dur 1 #
2	B – dur	D – dur 2 #
3	Es – dur	A – dur 3 #
4	As – dur	E – dur 4 #
5	Des – dur	H – dur 5 #
6	Ges – dur	Fis – dur 6 #
7	Ces – dur	Cis – dur 7 #

AMALIY MISOLLAR

Mustaqil ish uchun savollar.

1. Lad nima.
2. Turg'un va noturg'un tovushlarga kiritiladigan tovushlar.
3. Gamma nima.
4. Major tonalliklari.
5. Major kvinta davrasi.

Ishlash uchun misollar.

1. Barcha major tonalliklarini kalitdan so'ng keladigan al'teratsiya belgilarini tug'ri nota chiziqlariga qo'yib bering.
2. Major tonalliklarida noturg'un tovushlarini turg'un tovushlariga tortilish sxemasini yozib bering.
3. Barcha major tonalliklarini xarfiy sistema bo'yicha yozib bering.

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Major tonalliklarini ijro eting.

8 Mavzu : Tabiiy, Garmonik , Melodik major va minor ladi.

REJA

- 1.Tabiiy major ladi.
2. Garmonik va melodik major.
- 3.Minor ladi. tabiiy minor gammasi.
4. Garmonik va melodik minor.
- 5.Parallel tonalliklar.
- 6.Minor tonalliklarining
- 7.Kvinta davrasi.
8. Nomdosh tonalliklar

MA'RUZA MATN

GARMONIK VA MELODIK MAJOR

Musiqada ko'pincha VI pog'ona pasaytiriladi. Major ladida uchraydi va Garmonik major deb ataladi. Garmonik major rus klassik va chet el bastakor asarlarida ko'llaniladi. Pasaytirilgan VI pog'ona asarda tasodifiy belgi deb ataladi.

Musiqada Melodik major kam uchraydi, unda VI va VII pog'onalar pasayadi, tabiiy minorga o'xshab ketadi va asarlarda kuy pastga tomon xarakatlanganda qo'yiladi.

Tabiiy do major



Garmonik do major




Melodik do major



MINOR LADI.

Minor ladi major ladi singari 7 pog'onali bo'ladi. Minor ladi Major ladidan sekundalarning joylashish tartibi bilan farq qiladi.




Minorda tortilish kuchi II pog'ona - III pog'onaga va VI pog'ona V – pog'onaga tortiladi. Minor uchtovushligi deb kichik uchtovushlikka aytiladi Kich 3 + Kat 3


GARMONIK VA MELODIK MINOR

Garmonik minor tabiiy minordan VII pog'ona ko'tarilishi bilan farq qiladi. Garmonik minorni xususiyati VI pog'ona bilan VII pog'ona orasida ortirilgan sekunda xosil bo'lishi.

Garmonik minor



Melodik minor tabiiy minordan VI va VII pog'ona ko'tarilishi bilan farq qiladi. Melodik gammada yuqoriga tomon xarakat vaqtida VI va VII pogona ko'tariladi, qaytganda esa bekor qilinadi va tabiiy minor qilib chalinadi. Asarlarda qaytishda xam VI va VII pog'onalar ko'tarilgan xolatini uchratish mumkin.



PARALLEL YONDOSH TONALLIKLAR

Tabiiy ko'rinishdagi major va minorda bir xil tovushlar bo'ladi. Kalit belgisi bir xil bo'lgan major va minor tonalliklari parallel-yondosh tonalliklar deyiladi.


MINOR KVINTA DAVRASI

Minor tonalliklarining umumiy miqdori major tonalliklari singari olti tonallikka ega. Bulardan uchta diezli tonallik va qolgan uchta bemolli tonallikka engarmonik jixatdan teng bo'ladi. Bular Sol diez minor- lya bemol minorga teng, Re diez minor - mi bemol' minorga teng, lya diez minor - si bemol minorga teng.

		a – moll	
1	d-moll	e – moll 1 #	
2	g – moll	h – moll 2 #	
3	c – moll	fis – moll 3 #	
4	f – moll	cis – moll 4 #	
5	b – moll	gis – moll 5 #	
6	es – moll	dis – moll 6 #	
7	as – moll	ais – moll 7 # .	

NOMDOSH TONALLIKLAR

Bir xil tonikadan tuzilgan major va minor tonalliklari nomdosh tonalliklar deyiladi. Ular bir birida 3 ta pog'ona bilan farq qiladi. III, VI va VII pog'onalar bilan. C - yoki - c A - yoki - a .



AMALIY MISOLLAR

Mustaqil ish uchun savollar.

1. Gamma nima.
2. Minor tonalliklar.
3. Minor kvinta davrasi.
6. Parallel va Nomdosh tonalliklar.

Ishlash uchun misollar.

1. Barcha major va minor tonalliklarini kalitdan so'ng keladigan al'teratsiya belgilarini tug'ri nota chiziqlariga qo'yib bering.
2. Major va minor tonalliklarida noturg'un tovushlarini turg'un tovushlariga tortilish sxemasini yozib bering.
3. Barcha major va minor tonalliklarini xarfiy sistema bo'yicha yozib bering.
4. Barcha major tonalliklarni parallel gammasini topib yozing.
5. Barcha major va minor tonalliklarni nomdosh tonalliklarini aniklab yozing.
6. Barcha major va minor tonalliklarini uchtovushliklarini tuzing.

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Major va minor tonalliklarini ijro eting.
2. Garmonik va melodik majorlarni ijro eting.
3. Garmonik va melodik minorlarni ijro eting.

9 Mavzu : Major va minor tonalliklarining intervallari.

REJA

1. Major va minor tonalliklarining intervallari.
2. Garmonik major va minor intervallari.
3. Xarakterli intervallar.
4. Turg'un va noturg'un intervallar.


MA'RUZA MATN

MAJOR VA MINOR TONALLIKLARINING INTERVALLARI.

Tabiiy major va tabiiy minor pog'onalari fakat diatonik interval xosil qiladi. Xar bir pog'onadan interval tuzish mumkin. Yondosh intervallardan xar birining umumiy soni ladning etti pog'onasi soniga tengdir.

1 Tabiiy major va minorda o'xshash intervallar xosil bo'ladi va ularning soni bir-biriga teng keladi.

2 Minorda majorga o'xshagan barcha intervallar majordagiga qaraganda ikki pog'ona yuqorida joylashadilar.



3 Major intervallarini o'rganishda, tez esda qoladigan intervallar S1 va S8, Kich 2 va kat 2, kat 3, ort 4 va kam 5, S4, S5 va boshqalardan boshlash kerak bo'ladi.

Major intervallari o'rganilgandan keyin, ularni minor intervallarining joylashishi bilan taqqoslash unchalik qiyin bo'lmaydi.


GARMONIK MAJOR VA GARMONIK MINOR INTERVALLARI

XARAKTERLI INTERVALLAR.

Garmonik majorda VI pog'onaning pasaytirilishi va garmonik minorda VII pog'ona ko'tarilishi natijasida xosil bo'lgan intervallar tabiiy major va tabiiy minor intervallaridan farq qiladi.

1 Garmonik major va garmonik minor xosil bo'ladigan intervallar tabiiy ko'rinishda uchramaydilar. Bu xildagi intervallarga Xromatik yoki Xarakterli intervallar deyiladi. Ular faqat Garmonik major va Garmonik minorda shunday ataladilar. 4 ta Xarakterli intervallar bor. Bu ortirilgan sekunda. Kamaytirilgan septima. Ortirilgan kvinta va kamaytirilgan kvarta.

Bu xol Majorda VI pog'onani pasaytirilishiga bog'liq.



2 Ayrim diatonik intervallarning shakli o'zgaradi S4 bilan S5 o'rniga ortirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta shaklida 2 -ta uchtonlik xosil bo'ladi.



Garmonik major va Garmonik minor ularning qaysi pog'onalaridan tuzilganligini bilish kerak.

- a) Xarakterli intervallar
- b) Kichik sekundalar.
- v) Katta va kichik tertsiyalar(uchtovushlik tuzish uchun)
- g) Ortirilgan 4 va kamaytirilgan 5.

TURGUN VA NOTURGUN INTERVALLAR.

Lad pog'onalari yordami bilan tuzilgan xar bir interval o'zining akustik, oxangdosh(konsonans) yoki nooxangdosh (dissonans), bo'lishidan tashqari, turg'un yoki noturg'un pog'onalaridan tuzilganligiga qarab Lad xususiyati aniqlanadi. Intervallar turg'un va noturg'uniga ajratiladi. Agar bitta turg'un va bitta noturg'un tovush tuzilsa, noturg'un intervalga kiradi. Nooxangdosh interval qaysi xolatda bo'lmasin xar doim noturg'un interval xisoblanadi. ECHILISH. Nooxangdosh noturg'un intervalning echilishi deb uning oxangdosh turg'un intervalga o'tishi (aylanishi)ga aytiladi. Noturg'un interval faqat turg'un intervalga o'tgandagina echiladi.

a) Katta 2 va kichik 7 echilishi.



b) Nooxangdosh xolatdagi Sof 4 echilishi



v) Kichik 2 va katta 7 echilishi.



g) Uchtonlik echilishida ikkita tovush bir pog'ona tortilish tomonga o'tadi, ortirilgan 4 - ikki tomonga, kamaytirilgan 5- bir - biriga qarab.



Uchtonlik tarkibida turg'un tovush bo'lsa va echilish zarur bo'lsa, turg'un o'z o'rnida koladi. Noturg'un esa tortilish tomonga yo'naladi. Xarakterli intervallar xam turg'un va noturg'un intervallar qoidasi bo'yicha echiladi.

AMALIY MISOLLAR

Mustaqil ish uchun savollar.

1. Tabiiy major va tabiiy minor pog'onalaridan qanday intervallar xosil bo'ladi.
2. Garmonik va melodik major va minorda pog'onalar qanday o'zgariladi.
3. Xarakterli intervallar nima.
4. Garmonik majorda va minorda nechta ortirilgan 4 va kamaytirilgan 5 bor.
5. Qanday intervallar turg'un intervallar deyiladi.
6. Uchtonlik qanday echiladi.

Ishlash uchun misollar.

1. Bemolli va Diezli major tonalliklarining barcha pog'onalaridan intervallar tuzing.
2. Bemolli va Diezli minor tonalliklarining barcha pog'onalaridan intervallar tuzing.
3. Tabiiy major va garmonik minor va majorning barcha tonalliklarini ort.4 va kam. 5 (uchtonlik) echilishi bilan yozing.
4. Garmonik minorning barcha bemolli va diezli tonalliklarida xarakterli intervallar va ularning echilishini yozing.
5. Do, Re, FA, Sol, Lya tovushlaridan ort.2, kam.7, ort.4, va kam 5 tuzing.

Fortepianoda ijro etish uchun mashqlar.

1. Major va minor tonalliklarining barcha pog'onalaridan intervallar tuzing.
2. Major va minorning barcha tonalliklarida ort.4 va kam.5 tuzing
3. Garmonik major va minorning barcha tonalliklarida xarakterli intervallar tuzing va eching.

1 Mavzu : Akkordlar

REJA

1. Akkordlarni tuzilishi.
2. Akkordlar turlari.
- 3 Uchtovushlik turlari.
4. Uchtovushlik aylanmalari.

MA'RUZA MATN

AKKORDLAR

Tertsiya bo'yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan xamda bir vaqtda qo'shilib eshitilgan uch va undan ortiq tovushlarga akkord deyiladi. Uchta tovushdan iborat tertsiya bo'yicha joylashgan akkord uchtovushlik deyiladi. Akkord pastki tovushdan yuqoriga qarab tuziladi. Katta va kichik tertsiyalardan uchtovushlikning 4 xili xosil bo'ladi.

1 Major yoki katta uchtovushlik kat3+ kich 3 dan tuziladi. Cheti sof 5 intervallardan iborat.


2 Minor yoki kichik uchtovushlik kich 3 + kat 3 dan tuziladi. Cheti sof 5 intervallardan iborat.

3 Ortirilgan uchtovushlik kat 3 + kat 3 dan tuziladi. Cheti ortirilgan 5 intervallardan iborat.

4. Kamaytirilgan uchtovushlik kich3 + kich3 dan tuziladi. Cheti Kamaytirilgan 5 intervallardan iborat.



Major va minor uchtovushligidan xosil bo'lgan barcha intervallar oxangdosh (turg'un) intervallarga kiradi. Ortirilgan va kamaytirilgan esa nooxangdosh (noturg'un) ga kiradi. Akkordlarni xar bir tovushi mustaqil nomga ega.




Asosiy tovush - prima.

O'rta tovush - tertsiya.


Yuqori tovush - kvinta deb ataladilar.

Uchtovushlikni tovushlarini joylashuvi o'zgarsa (aylana) xosil bo'ladi.


Uchtovushlikni ikkita aylanasi bor.



1 Sekstakkord



2 Kvartsekkord



T 53 – kat3 + kich 3

t 53 – kich3 + kat 3

T 6 – kich3 + sof 4

t 6 - kat 3 + sof 4

T 64 - sof 4 + kat 3

t 64 - sof 4 + kich 3

AMALIY MISOLLAR

Mustaqil ish uchun savollar.

1. Akkord nima.
2. Uchtovushlik necha xil bo'ladi.
3. Uchtovushlik aylanmalari.

Ishlash uchun misollar.

1. Asosiy pog'onalardan uchtovushliklarni yozing.
2. Berilgan tovushlardan uchtovushliklar tuzing.

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Oktavaning xromatik tartibda major va minor uchtovushliklarini tuzing.

2 Mavzu : Asosiy uchtovushliklar.

REJA

1. Asosiy uchtovushliklar.
2. Ladning asosiy uchtovushliklari.
3. Tonika va uning aylanmalari.
4. Subdominanta va uning aylanmalari.
5. Dominanta va uning aylanmalari.
6. Uchtovushliklarni bir-biriga o'tishi


MA'RUZA MATN

Major va minorning barcha pog'onalaridan uchtovushlik tuzish mumkin. Lekin ulardan uchta asosiy ekanligini ko'ramiz. Bular I pog'ona IV pog'ona va V pog'ona xisoblanadi.


I pog'onada tuzilgan uchtovushlik T - Tonika deb ataladi,

IV pog'onada tuzilgan uchtovushlik S - Subdominanta deb ataladi,

V pog'onada tuzilgan uchtovushlik D - Dominanta deb ataladi.



Major katta xarf bilan Minor kichik xarf bilan yoziladi. Akkordlarning ko'shiluvi deb ulardagi tovushlarning birin ketin va rovon xarakatiga (tovush yo'nalishi) ga aytiladi va garmonik aylanma deyiladi.



MAJOR VA MINORNING YONDOSH UCHTOVUSHLIKULARI.

Asosiy uchtovushlik pog'onalaridan tashqari (II.III.VI.VII pog'ona) barcha pog'onalar yondosh pog'onalar deyiladi. Ular ikkinchi darajali xisoblanadi. Tabiiy majorda - 3 ta minorli va 1 ta kamaytirilgan uchtovushlik yondosh bo'ladi (VII pog'ona). Tabiiy minorda - 3 ta majorli va 1 ta kamaytirilgan uchtovushlik yondosh (II pog'ona).

Garmonik majorda III pog'ona - 1 minorli, II va VII pog'onalar - 2 ta kamaytirilgan va VI pog'onada-1 ta ortirilgan uchtovushlik xosil bo'ladi. Garmonik minorda VI pog'onada-1 ta majorli II va VII pog'onada - 2 ta kamaytirilgan va



III pog'onada - 1 ta ortirilgan uchtovushlik xosil bo'ladi.

1 Tabiiy major yoki minorda - 3 ta majorli. Uchta minorli va bitta kamaytirilgan uchtovushlik bor.

2 Garmonik major yoki minorda - 2 ta majorli, 2 ta minorli, 2 ta kamaytirilgan va bitta ortirilgan uchtovushlik bor.

Ortirilgan uchtovushlik - majorda tonikaga echiladi T 64 ga.

Ortirilgan uchtovushlik - minorda tonikaga echiladi T6 ga.

Kamaytirilgan uchtovushlik faqat garmonik sekstakkord shaklida qo'llaniladi.

AMALIY MISOLLAR

Mustaqil ish uchun savollar.

1. Uchtovushlik aylanmalari.
2. Asosiy uchtovushliklarning nomlari.

Ishlash uchun misollar.

1. Berilgan tovushlardan uchtovushliklar tuzing.
2. Berilgan tonalliklardan asosiy uchtovushliklar tuzing va aylantiring.

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Oktavaning xromatik tartibda Asosiy uchtovushliklar tuzing va aylantiring.

3 Mavzu : SEPTAKKORD

REJA


1. Septakkordning turlari,
2. Dominantseptakkord aylanmalari va yechilishlari.
3. Septakkordkarni bir-biriga o'tishi.

MA'RUZA MATN

SEPTAKKORD

Tertsiya asosida joylashgan to'rt tovushli akkordga septakkord deyiladi. Septakkordning ikki chetidagi tovushlar oralig'i septima intervallida bo'ladi. Shuning uchun xam bu akkord septakkord nomini olgan.

Musiqada septakkord xilma-xil ko'rinishlarda qo'llaniladi. Major va Garmonik minorning V pog'onasidan tuzilgan septakkord eng ko'p tarqalgan septakkordga kiradi. Bu akkord Dominantseptakkord deyiladi, Dominantseptakkord yuqori tomondan kichik tertsiya qo'shilgan major uchtovushligidan (kat3+kich3+kich3) tuziladi. Dominantseptakkord tovushlari asosiy tovushdan boshlab sanalganda prima, (akkordning negizi) tertsiya, kvinta va septima (akkord cho'qqisi) lardan iborat. Dominantseptakkord quyidagi belgi bilan yoziladi-D7.




D7 AYLANMALARI.

D7 uchta aylanmaga ega, bulardan

- 1 - Kvintsektakkord 6/5
- 2 - Tertskvartakkord 4/3
- 3 - Sekundakkord 2 deyiladi.

Dominantseptakkord aylanmalarining nomi, akkordning eng pastki tovushi negizidan cho'qqisiga qarab tuziladigan tovushlar intervallariga asoslanadi.




D7 – kat3+kich3+kich3 = V pog'onadan tuziladi

D65 – kich3+kich3+kat2 = VII pog'onadan tuziladi

D43 – kich3+kat2+kat3 = II pog'onadan tuziladi

D 2 - kat2+kat3 +kich3 = IV pog'onadan tuziladi.

D7 - nooxangdosh akkordlarga kiradi. Uning tarkibida ikkita nooxangdosh interval bor, bular kichik 7 va kamaytirilgan 5 intervallaridir.




D7 aylanmalarida bu nooxangdosh intervallar kat2 va ort 4 ga aylanadi.

D7 ning aylanmalari - T ga echilishida D7 – to'liqsiz kvintasiz —T ga echiladi.

D65 – to'liq -T ga prima 2 ta bo'ladi.

D34- to'liq -T ga oktava oralig'ida echiladi.

D2 – to'liq —T6 ga juftlangan primaga echiladi.



AMALIY MISOLLAR

Mustaqil ish uchun savollar.

1. Septakkord nima
2. Septakkord turlari.

Ishlash uchun misollar.

1. Septakkordlar tuzing V pog'onadan va aylantiring

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Oktavaning xromatik tartibda Septakkordlar tuzing va aylantiring.

4. Mavzu : ETAKCHI SEPTAKKORDLAR VA II POG'ONA SEPTAKKORDI.

REJA

1. Yetakchiseptakkord aylanmalari va yechilishlari.
2. Subdominantseptakkord aylanmalari va yechilishlari.
3. Septakkordkarni bir-biriga o'tishi.

MA'RUZA MATN

D7 dan tashkari etakchi septakkord xam ko'p qo'llaniladi Ular tabiiy va Garmonik major, Garmonik minor VII pog'onasida tuziladi, shuning uchun etakchi septakkord deyiladi. Etakchi septakkord VII7 yoziladi. Etakchi septakkord ikki chetida kich 7 xosil qiladi shuning uchun kichik etakchi septakkord deyiladi. VII7 (kich3+ kich 3 + kat 3) dan tuziladi Majorda kichik VII 7. Garmonik minorda kamaytirilgan VII 7 (kich 3 + kich 3 + kich 3) dan tuziladi.




VII 7 xam uchta aylanmaga ega. Ular asosiy ko'rinishda va aylanma xolida qo'llaniladi.



D7 va VII 7 lardan tashqari II pog'ona septakkordi xam qo'llaniladi. Bu septakkord Subdominanta funktsional sistemasiga akkordlar gruppasiga kiradi va shuning uchun Subdominantseptakkord nomini olgan.

Majorda II pog'onadan kichik minor septakkordi tuziladi.

Minorda II pog'onadan kichik septakkord tuziladi.



II 7 pog'ona septakkordi aylanmalaridan S ta to'larok ifodalangan. II 65 (pasda IV pog'ona) aylanmasi ko'prok qo'llaniladi.



AMALIY MISOLLAR

Mustaqil ish uchun savollar.

1. Etakchi septakkordning aylanmalari.
2. II pog'ona subdominant septakkordning aylanmalari.

Ishlash uchun misollar.

1. Etakchi septakkord tuzing va aylantiring
2. II pog'ona subdominant septakkord tuzing va aylantiring.

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Oktavaning xromatik tartibda Septakkordlar tuzing va aylantiring.

5 Mavzu : Xalq musiqa ladlari

REJA

1. Xalq musiqa ladlari.
2. Yetti pog'onali ladlar
3. Pentatonika
4. O'zgaruvchan ladlar.

MA'RUZA MATN

XALQ MUSIQA LADLARI.

Musiqada major bilan minordan tashqari, yana boshqa xildagi ladlar xam qo'llaniladi. Xalq musiqa ladlari, xususan ko'p millatli xalqlar qo'shik ijodida uchraydi. Musiqa xam ko'p asrlar davomida rivojlanish jarayonida xar-xil xalqlarda turlicha shakllangan. Xalq musiqa ijodida uchraydigan ladlar xam jaxon musiqa amaliyotida qabul qilingan. Xalq qo'shiqlarida - ikkita, uchta, to'rta, beshta va oltita xar-xil tovushlardan tuzilgan qo'shiqlar uchraydi.

XALQ MUSIQASINING ETTITA POGONALI DIATONIK LADLARI.

Xalq musiqasida ketma-ket kelgan va xilma-xil diatonik pog'onalardan tuzilgan etti pog'onali ladlar uchraydi. Lad pog'onalarining birin-ketin kelishi tovush qatorda katta va kichik sekundalar joylashishiga bog'liqdir. Xalq musiqa ladlari. Major va Minordan farq qiladi — lekin tonikalari Major va Minor uchtovushligi bo'lganligi uchun ularga Major va Minorning muxim turlari sifatida qaraladi. Ikkita Major ladi etti pog'onali xalq musiqa ladlariga yondosh laddir, bular VII chi pog'onasi pasaytirilgan va IV pog'onasi ko'tarilgan majordir. Yana ikkita minor ladi xam yondosh ladga kiradi, bular IV pog'onasi ko'tarilgan va II pog'onasi pasaytirilgan minor.

Xalq qo'shiqlarida VII pog'onasi pasaytirilgan tabiiy major ladi boshqa lادلarga nisbatan ko'proq uchraydi. VII pog'onaning pasaytirilishi uning I pog'onaga qarab tortilish kuchini ancha susaytiradi va bu bilan VII pog'ona pasaytirilgan tabiiy minorni eslatadi. Unda I pog'onadan tuzilgan kichik septima xosil bo'ladi. Ularga nomlar berilgan.

VII pog'ona pasaytirilsa major - Miksolidiy ladi. IV pog'ona ko'tarilgan major - Lidiy ladi. VI pog'ona ko'tarilsa minor-Doriy ladi. II pog'ona pasaysa minorda - Frigiy ladi.

IV pog'ona ko'tarilgan major ladi kam uchraydi. VI pog'ona ko'tarilgan minor Ladi I pog'onada katta 6 xosil qiladi va IV va VII pog'onalar major uchtovushligini xisoblanadi.




PENTATONIKA

Xalq qo'shiqlarida tovushqatori katta 2 va kichik 3 orasida tuzilgan besh pog'onali lad juda ko'p uchraydi. Bu xildagi ladlar pentatonika deyiladi. Fortepianoda ko'ra klavishalarida, bir oktava oralig'ida birin- ketin eshitilgan barcha tovushlar pentatonika tovushlarini xosil qiladi. Pentatonika = Bitta kichik 3 bilan uchta katta 2 yoki ikkita kichik 3 bilan ikkita katta 2 ni xosil qiladi. Pentatonika pog'onalari uchtonlik xosil qilmaydi. Pentatonikani ikki xil turi qo'llaniladi.

1) 1 pog'onada major uchtovushligi tuziladigan pentatonika. Tabiiy majordan farq qiladi. Unda IV va VII pog'onalar bo'lmaydi.

2) 1 pog'onada minor uchtovushligi tuziladigan pentatonika Tabiiy minordan farq qiladi. Unda II va VI pog'onalar bo'lmaydi





O'ZGARUVCHAN LADLAR.

Yuqorida ko'rsatilgan lادلardan tashqari o'z tarkibida ikkita ladni birlashtiruvchi lادلar xam uchraydi. Ularning tonikasi almashib turganligi uchun O'zgaruvchan lادلar deyiladi.

1) parallel major bilan minor ladning tovushlar tarkibi o'xshash. Shuning uchun ular bir ladga qo'shiladi. Major va Minor uchtovushligi tarkibida ikkita umumiy tovush bor. Shunday birlashuvni o'zgaruvchan parallel lad deyiladi..

2) Major-minor o'zgaruvchan ladi deb nomdosh major bilan minorni almashib turishiga aytiladi.

AMALIY MISOLLAR

Mustaqil ish uchun savollar.

1. Xalq musiqasi etti pog'onali lادلari.
2. Xalq musiqasida qaysi ko'rinishda diatonik etti pog'onali lad deyiladi.
3. Pentatonika nima.
4. Pentatonikani qanday intervallar xosil qiladi.
5. Qaysi lادلar o'zgaruvchan lad deyiladi.
6. Major va minor nima.

Ishlash uchun misollar.

1. Berilgan asarni tonalligini aniqlang.
2. Pentatonika ladini yozing.
3. Berilgan asarni tovushqatorini aniqlang
4. Xalq musiqa ladlarini tuzing
5. Xalq musiqa ladlarini nomlarini va pog'onalarini yozib bering
6. Berilgan tovushlardan xalq musiqa ladlarini tuzing.

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Xar-xil tovushdan xalq musiqa ladlarini ijro eting.
2. Pentatonika tuzing va chaling.

6 Mavzu : Tonalliklar pogonadoshligi

REJA

- 1.Tonalliklar pogonadoshligi
- 2.Alteratsiya,
- 3.Xromatizm,
- 4.Major va minor xromatik gamma.

MA'RUZA MATN

TONALLIKLAR POG'ONADOSHLIGI

Barcha major va minor tonalliklari o'zaro garmonik tengdosh tongalliklar gruppasini tashkil qiladi. Tonika uchtovushliklari tabiiy va garmonik ko'rinishda berilgan tonalliklar pog'onalaridan xosil bo'lgan tonalliklar pog'onadosh tonalliklar deyiladi.

Musiqqa asarida ilk tonallik bosh tonallik deyiladi, musiqqa rivojlanishi jarayonida uni almashtiruvchi tonallik esa Yondosh tonallik deyiladi.

Xar bir tonallik oltitadan pog'onadosh tonallikka ega. Masalan: Do majorda quyidagi tonalliklarga pog'onadosh bo'ladi:

1. G - dur IV asosiy pog'onalar tonalligi
2. G - dur V asosiy pog'onalar tonalligi
3. a-moll VI parallel pog'onalar tonalligi
4. d - moll II asosiy pog'onalar parallel tonalligi
5. e- moll III asosiy pog'onalar parallel tonalligi
6. f- moll IV (garmonik) - minor Subdominanta tonalligi.

Lya minor tonalligiga pog'onadosh tonalliklar.

1. d-moll IV asosiy pog'onalar tonalligi
2. e-moll V asosiy pog'onalar tonalligi.
3. c-dur III parallel pog'onalar tonalligi.
4. G -dur VI asosiy pog'onalar parallel tonalligi.
5. G-dur VII asosiy pog'onalar parallel tonalligi.
6. E - dur V (garmonik) - Major Dominanta tonalligi.

XROMATIZM, AL'TERATSIYA.

Diatonik ladlarning asosiy pog'onalarini ko'tarish yoki pasaytirish yo'li bilan o'zgartirilishi Xromatizm deyiladi, va xosila pog'ona bo'ladi, alteratsiya belgisi quyiladi yoniga.

Majorda IV pog'ona pasayishi, Minorda VI pog'ona va VII pog'ona ko'tarilishi — xromatik o'zgarishga kiradi va alteratsiya belgisi kalit oldiga emas, balki nota yoniga qo'yiladi. Bundan tashqari, xromatizm tasodifiy, o'tkinchi, ya'ni tortilishni keskinlashtiruvchi biror pog'onali vaqtincha o'zgartiruvchi sifatida xam uchrashi mumkin, Noturg'un tovushlarning turg'un tovushlarga tortilishini keskinlashtiruvchi xromatik o'zgarishlar musiqa nazariyasida al'teratsiya deyiladi. Asosiy pog'onani katta sekunda oralig'ida turgan pog'onani alteratsiya qilish mumkin. Majorda :


II pog'ona pasayadi. IV pog'ona ko'tarilishi va pasayishi. VII pog'ona ko'tarilishi.

XROMATIK GAMMA

Xromatik gamma birin - ketin keladigan yarim tonliklardan tarkib topadi. Xromatik gamma lad bo'la olmaydi, uning negizi major yoki minor gammasi xisoblanadi. Xromatik gamma bularning murakkab xilidir. U major va minorni to'ldiradi, yozishda uyushqoqlikka asoslanadi. Yozilish qoidasida asosiy pog'onalar o'zgarmaydi, katta sekundalar yuqoriga tomon I, II, IV va V pog'onalar ko'tarilishi bilan to'ldiriladi, pastga tomon VI pog'onaning ko'tarilishi o'rniga VII pog'ona pasayadi. Pastga xarakat qilinganda, katta sekundalar VII, VI, III va II pog'onalar pasaytirilishi bilan to'ldiriladi, V pog'onani pasaytirish o'rniga IV pog'ona ko'tariladi.

Yuqoriga VII pog'ona pasayishi va pastga IV pog'ona ko'tarilishi vaqtida o'zgarilgan barcha pog'ona tovushlar tabiiy yoki major ko'rinishdagi pog'onadosh tonalliklar pog'onalariga teng bo'lmog'i lozim.

Minorda xromatik gamma yuqori tomonga xarakatining yozish qoidasi parallel majorga o'xshash bo'ladi. Yuqoriga I pog'ona ko'tarilmaydi, o'rniga II pog'ona pasayadi. Pastga tomon xarakat vaktida minor xromatik gammasi nomdosh major gammasi singari yoyiladi.



Qoida: MAJOR.


Yuqoriga: I, I#, II, II#, III, IV, IV#, V, V#, VI, VII, VII, VIII.

Pastga: VIII, VII, VII, VI, V, V, IV#, IV, III, III, II, II, I

MINOR.

Yukoriga: I, II, II, III, III#, IV, IV#, V, VI, VI#, VII, VII, VIII.

Pastga: VIII, VII#, VII, VI#, VI, V, IV#, IV, III#, III, II, II, I.



AMALIY MISOLLAR

Mustaqil ish uchun savollar.

1. Qaysi tonalliklarga pog'onadosh tonalliklar deyiladi.
2. Xromatizm nima.
3. Xromatizmning qaysi ko'rinishiga al'teratsiya deyiladi.
4. Xromatik gamma nima.
5. Xromatik gammaning yozilish qoidalari.
6. Major va minor xromatik gammasining yozilish qoidasi.

Ishlash uchun misollar.

1. Barcha diezli va bemolli tonalliklariga teng bo'lgan tonalliklarini ishleng.
2. Barcha diezli va bemolli tonalliklariga pog'onadosh bo'lgan tonalliklarini ishleng.
3. Major xromatik gammasini yuqoriga va pastga ishleng.
4. Minor xromatik gammasini yuqoriga va pastga ishleng.
5. Barcha major va minor tonalliklaridagi noturg'un tovushlarning al'teratsiya sxemalarini yozing.
5. Barcha major va minor xromatik gammasini pastga va yuqoriga ishleng.
- 6.

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Pog'onadosh tonalliklarni tuzing va ijro eting
2. Xromatik gamma tuzing va ijro eting.

7 Mavzu : Modulyatsiya.

REJA

1. Modulyatsiya.
2. Pog'onadosh tonalliklarga modulyatsiya qilish
3. Og'ishma
4. Yondosh tonalliklarga modulyatsiya va og'ishma qilish
5. Tonalliklar aniklash

MA'RUZA MATN


MODULYATSIYA VA OG'ISHMALAR.

Musiqaviy asar qismining biror yangi tonallikka o'tishi va shu tonallik bilan tugallash xollari Modulyatsiya deyiladi.

Musiqaviy asar biror yangi tonallikka vaqtincha o'tsa va yana dastlabki tonallik bilan tugallansa – og'ishma (otklonenie) deyiladi.

Og'ishmalar odatda o'tkinchi xarakterga ega bo'ladi, ular musiqa tarkibida uchraydigan ayrim akkordlar funksiyasini qisqa muddat ichida ajratib ko'rsatish vositasi xisoblanadi.

Yangi tonallikka o'tish ko'pchilik xollarda tasodifiy belgilarning xosil bo'lishi bilan bog'liq bo'ladi, modulyatsiya bo'lgan - bo'lmasligini ayrim vaqtlarda jo'r bo'luvchi akkordlarga qarab xam belgilash mumkin, chunki tasodifiy belgilar faqat pastki tovushlardagina qo'yiladi.



POGONODOSH TONALLIKLARGA MODULYATSIYA QILISH.

Modulyatsiya musiqada juda keng qo'llaniladi, u ifoda vositasi sifatida chuqur badiiy ahamiyatga ega bo'ladi va musiqaning rang-barang oxanglarda eshitilishiga xamkorlik qiladi.

Pog'onadosh tonalliklar tovush sostavida birlashganlari uchun shu pog'onadosh tonalliklardagi modulyatsiyalar yoqimli va rovon bo'ladi. Dominanta va uning parallel

tonalligiga qilingan modulyatsiyalarni juda ko'p uchratish mumkin. Subdominant va uning parallel tonalliklariga qilingan modulyatsiya, odatda, og'ishmaga o'xshagan bo'ladi.



TONALLIKLARNI ANIQLASH.

Kalit va tasodifiy alteratsiya belgilari kuyni tuzilishi, uning tonikasi, uchtovushligini belgilovchi asosiy va tayanch tovushlar berilgan kuyning lad va tonalliklarini aniqlovchi asosiy vositalar xisoblanadi. Kuyni so'ngi tovushidan xam tonallikni aniklash mumkin bo'lavermaydi. Xalq qo'shiqlarida birinchi pog'onada kuy tugallanmaydi, boshqa tovushlarda tugallaydi. Agar kuy jo'r bo'luvchi ovozlarga ega bo'lsa akkord tonika uchtovushligi bilan yakunlanadi.

TRANSPOZISIYA.

Musiqasi asarini pastga yoki yuqoriga qarab istalgan biror tonallikka ko'chirish mumkin, shu ko'chirishni Transpozisiya deyiladi.. Transpozisiyani uchta usuli bor.

- 1) Mazkur intervalda o'zgartirib yasash.
- 2) Kalit belgilarini o'zgartirish.
- 3) Kalitni o'zini o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

1) Biror intervalda transpozitsiya qilish lozim bo'lganda oldin tonallik aniqlanadi va qanaqa intervalga ko'chirilishi va shu ko'chishdagi tonallik aniqlangach belgilari o'zgariladi va notalar shu intervalga ko'chiriladi.

2) Xromatik yarim ton yuqoriga yoki pastga qarab yarim tonga transpozisiya qilish, bunda kalit yonidagi belgilar o'zgaradi, notalar o'z xolicha qoladi.

3) Nota yo'lga yangi kalit qo'yiladi va o'sha kalitdagi notalariga ko'chiriladi. Kalitlarni va ularda joylashgan notalarni yaxshi bilish kerak bo'ladi.

AMALIY MISOLLAR
Mustaqil ish uchun savollar.

1. Modulyatsiya nima va qanday bajariladi.
2. Og'ishma nima va qanday bajariladi.
3. Kuyda modulyatsiyaning xususiyati qanday bo'ladi.
4. Qaysi pog'onadosh tonalliklarga modulyatsiya qilinadi.
5. Lad va tonalliklar qanday aniqlanadi.
6. Berilgan asarni tonalliklarini aniqlang.
7. Transpozisiya nima.
8. Transpozisiyani usullari.
9. Berilgan asarni transpozisiya qiling.

Ishlash uchun misollar.

1. Berilgan asarni asosiy tonallikdan og'ishma qiling.
2. Berilgan asarni asosiy tonallikdan modulyatsiya qiling
3. Berilgan asarni modulyatsiyali yoki og'ishmaliligini aniqlang
4. Berilgan asarni pog'onadoshligini aniqlang.
5. Berilgan asarni yozib tonalliklarini aniqlang va taxlil qiling.
6. Berilgan asarni kat3 va sof 4 ga pastga va yuqoriga transpozisiya qiling.

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Modulyatsion davriyani ijro eting.
2. Ogishmali asarni ijro eting.
3. Berilgan asarni ijro eting va tonalliklarini aniqlang.
4. Berilgan asarni transpozisiya qilib va choling.

8 Mavzu : KUY.

REJA

- 1.Kuy.
- 2.Kuy harakatlari.
3. Davriya, jumla, kadensiya, kulminatsiya.

MA'RUZA MATN

K U Y

Tovushlarning bir ovozli shaklda ma'lum lad va metr xamda ritm jixatdan uyushib kelishiga kuy deyiladi. Musiqaviy mazmun jo'rsiz, yakka kuy orqali xam ifodalanishi mumkin. Bir ovozli musiqa asarlari tekstli (qushik) va tekstsiz (cholg'u kuylari) xolida bo'lishi mumkin. Tekstli kuy mazmuni ancha yorqin va tushunarli bo'ladi. Bunga bir ovozli kuylar bo'lgan xalq qo'shiqlari va raqslari misol bo'la oladi. Ularning mazmuni xilma-xil va orzu-niyatlari, xayoti aks ettirilgan. Xalq musiqa ijodida ikki ovozli va ko'p ovozli asarlar xam uchraydi. Lekin bunday asarlarda nechta ovoz (qo'shimcha ovoz) bo'lishidan kat'iy nazar, asosiy kuy yo'nalmasi barcha tovushlarning qo'shilib eshtilishidan tashkil topadi. Bundan tashqari, turli xalqlarning qo'shiqlari xam, raqs kuylari xam o'zlariga xos kuy tuzilmalariga ega bo'lishi bilan bir-biridan farq qiladi. Boshqacha aytganda, xar bir xalq qo'shig'ida o'ziga xos milliy kolorit bo'ladi.

Klassik musiqada xalq qo'shig'i asosiy kuy manbai sifatida qo'llaniladi. Bunda biz xalq kuylari bilan bir qatorda, xalq kuyi ruxida yozilgan mustaqil kuy -tema (musiqaviy mavzu) larni xam uchratamiz. Milliy madaniyatlar o'sib borgan sari, xalq ijodi xam tobora chuqurroq o'rganilmoqda. Bu esa o'z navbatida bastakorlarning o'z xalqlariga bitmas-tuganmas qo'shiq boyligidan yanada kengroq foydalanish imkonini bermiqda.



KUYNING XARAKAT YO'NALMASI.

Kuy xarakati o'zining rivojlanish jarayonida xilma-xil shakllarga kiradi. Kuy xarakatining shakli turli yo'nalmalardan tashkil topadi. Ulardan eng asosiylari

A) Ko'tariluvchi xarakat.

B) Quyilashuvchi xarakat.

V) Ko'tariluvchi va quyilashuvchi xarakatning bir tekisda almashib turishidan xosil bo'ladigan to'lqinsimon xarakat.

G) Tovushning takrorlanishidan xosil bo'ladigan gorizontal xarakat. Bu uchta xarakatni pog'onama- pog'ona, intervalma -interval (sakrama) yoki aralash bo'lishi mumkin.

To'lqinsimon xarakat u qadar katta bo'lmagan diapazonda yoki sekin-asta ko'tarilish yoki quyilish yo'li bilan xosil bo'ladi. Xarakat gammaning turli pog'onalarida sekin-asta ko'tarilish yoki quyilish yo'li bilan borsa, kuy oxangda takrorlanib turadi. Kuyning bu xildagi tuzilmasi **SEKVENTSIYA** deyiladi.

Kuyning eng yuqori nuqtasi yoki mintaqasi (dinamik xarakatining eng zo'raygan paytiga mos kelsa) **KUL'MINATSIYA** (avj) deyiladi.

Kuy xarakat shakllari: a)Gorizontal'.

b)Aralash va to'lqinsimon xarakat.

V)Sakrama xarakat.

g)Sekventsia.

d)Kul'minatsiya.

Balandlik jixatdan farq qiladigan tovushlar oralig'i kuy xarakatining **DIAPOZON** ni deyiladi.

KUYNING TARKIBLARGA BO'LINISHI.

Kuy nutq kabi tinimsiz davom etavermay, tarkiblarga bo'linadi. Kuy yoki musiqaviy asarning tarkiblari **TUZILMA** deyiladi. Ularning cho'zimi xam turlicha bo'ladi. Tuzilmalar chegarasi oralig'i **SEZURA** deyiladi. Sezura V belgisi bilan yoziladi. Tugallangan musiqaviy fikrni ifodalovchi musiqaviy tuzilmaga **DAVRIYA** deyiladi. Oddiy davriya sakkiz taktdan iborat bo'ladi. Davriya ikki qismga bo'linadi, ular **JUMLA** deb ataladi. Musiqaviy tuzilmaning tugallanishiga **KADENTSIYA** deyiladi. Kuyda kadentsiya ikki va undan ortiq tovushlarning birin ketin tugallanishi bilan ifodalanadi. Bu tovushlar tuzilmani turg'un yoki noturg'un xolda tugallanishga olib keladi. Shuning uchun kadentsiya 3 xil ko'rinishga ega.

1) To'liq o'rinishgan kadentsiya-kuy tonika uchtovushligining prima tovushi bilan tugaydi.

2) To'liq o'rnashmagan kadentsiya -tonika uchtovushligining tertsiya yoki kvinta bilan tugaydi.

3) Yarim kadentsiya –noturg'un tovush bilan tugaydi.

Agar davriya o'zining dastlabki tonalligi bilan tugasa, **YAGONA** tonallik deyiladi.

AMALIY MISOLLAR
Mustaqil ish uchun savollar.

1. Kuy deb nimaga aytiladi.
2. Sekventsia nima.
3. Kadentsiya nima
4. Davriya nima

Ishlash uchun misollar.

1. Berilgan asarni taxlil qilib bering.
2. Berilgan asarni dinamik belgilarini aytib ko'rsatib bering

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Berilgan bir nechta asarlarni taxlil qilib ijro etib bering.

9 Mavzu : Musiqiy sintaksis

REJA

1. Musiqa bezaklari.
2. Ijrochilik bezaklari.
3. Xonanda bezaklari.
4. Musiqiy sintaksis

MA'RUZA MATN

MUSIQA BEZAKLARI

Kuyni asosiy tovushlarini bezatuvchi ayrim oxangdor figuralarga musiqa bezaklari deyiladi. Musiqa bezaklariga forshlag, mordent, gruppetto, trel' lar kiradi. Forshlag ikki xil bo'ladi : qisqa va uzun.


Qisqa forshlag bir yoki bir necha tovushdan tuzilib yonma-yon joylashgan tovush cho'zimi xisobidan juda qisqa ijro etiladi.

Uzun forshlag bir tovush yordami bilan yonma-yon turgan tovush cho'zimi o'lchovida ijro etiladi.

Oddiy mordent yordamchi tovush asosiy tovushning yuqori tomonidan olinishini bildiradi. Chiziqli mordent yordamchi tovush asosiy tovushning ostki tomonidan olinishi kerakligini bildiradi. Gruppetto to'rt yoki besh tovushdan iborat kuy tuzilmasi shaklida bo'ladi.

Trel' deb bir tekis rovon almashib turadigan ikkita (asosiy va yordamchi) tovushdan tuzilgan kuy figurasiga aytiladi.





IJROCHILIK USLUBINING BELGILARI.

Ijrochilik uslubining bezaklari : Legato, stakkato, portamento (glisando) va arpedjiatolar kiradi. Legato uslubi kuydagi tovushlarni bir-biriga bog'lagan xolda ijro etilishini bildiradi. Va yoysimon chiziq bilan birlashtiradi tovushlarni.

Stakkato uslubi kuy tovushlarini, akkordlarni qisqa-qisqa va chertib ijro etish kerakligini ifodalaydi.

Portamento yoki glisando uslubi xromatik gamma (fortepianoda diatonik gamma) bo'ylab pastga yoki yuqoriga tomon sirg'anish kerakligini bildiradi. Arpedjiato uslubi akkordlarni aloxida-aloxida olish kerakligini bildiradi.

AMALIY MISOLLAR **Mustaqil ish uchn savollar.**

1. Davriya nima
2. Musiqa bezaklari.
3. Ijro bezaklari.

Ishlash uchun misollar.

1. Berilgan asarni taxlil qilib bering.
2. Berilgan asarni musiqa bezaklarini ko'rsatib bering.
3. Berilgan asarni ijro uslubini bilib bering.

Fortepianoda ijro etish uchun misollar.

1. Berilgan bir nechta asarlarni taxlil qilib ijro etib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

I.Vaxromeyev «Musiq elementar nazariyasi» Maskva 1968

I.D.Raximov «Musiqaning elementar nazariyasi mashq va vazifalar to'plami» Toshkent 2006

O.Azimova «Garmoniya darsligi» Toshkent 2000

Z.M.Roytershtyen «osnova teoreticheskogo muzikoznaniya» Maskva 2003

X.Raximov «Musiq» Toshkent 2005

O.A.Skrebkova «Musiq nazariyasi» Moskva 1978

«Mashq va masalalar to'plami» Toshkent 2001

MUNDARIJA

1. Tushuntirish xati.....	3
2. 1 Mavzu - Musiqa tuzimi.....	4
3. II Mavzu - Musiqaviy tovushlarning o'zaro munosabatlari va harfiy sistemasi.....	7
4. III Mavzu - Nota yo'zuvi, nota cho'zamlari va ularda qo'llaniladigan belgilar.....	11
5. IV Mavzu - Ritm va metr.....	19
6. V Mavzu - Oddiy intervallar. Intervallarning aylanishi.....	25
7. VI Mavzu - Tarkibli intervallar. Konsonans va dissonans intervallar.....	29
8. VII Mavzu - Lad (major va minor ladi). Tabiiy major gammasi Tonallik, kvinta davrasi. Major tonalliklari engarmonizmi.....	31
9. VIII Mavzu - Tabiiy, Garmonik, Melodik major va minor ladi.....	35
10. IX Mavzu - Major va minor tonalliklarining intervallari.....	39
11. X Mavzu - Akkordlar.....	42
12. XI Mavzu - Asosiy uchtovushliklar.....	44
13. XII Mavzu - Septakkord	46
14. XIII Mavzu - Yetakchi va II pog'ona subdominantseptakkord.....	48
15. XIV Mavzu - Xalq musiqa ladi.....	50
16. XV Mavzu - Tonalliklar pog'onadoshligi.....	53
17. XVI Mavzu - Modulyatsiya	56
18. XVII Mavzu - Kuy	59
19. XVIII Mavzu - Musiqa sintaksisi.....	62
20. Foydalanilgan adabiyot.....	64